

Markaziy Osiyo iqlimiy axborot platformasini yaratish: xabardorlikni oshirish, baholash va qaror qabul qilish

Kuni kecha Toshkentda Markaziy Osiyo iqlimiy axborot platformasini yaratishga bag'ishlangan maslahat seminari o'tkazildi. Tadbir Qurg'oqchil mintaqalarda qishloq xo'jalik tadqiqotlari xalqaro markazi (IKARDA)ning Mintaqaviy vakolatxonasi tomonidan tashkil etildi. Seminar ishida Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi vazirliklari, O'zgidromet vakillari, mintaqaviy xalqaro loyihalar mutaxassislari va boshqalar ishtirok etdi.

Seminarni o'tkazishdan maqsad "Orol dengizi havzasida iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish" loyihasi (CAMP4ASB)ning "Markaziy Osiyo iqlimiy axborot platformasini yaratish" komponenti bilan tanishtirish, respublikamizdagi mavjud iqlimiy ma'lumotlarni baholash, hamkorlik o'rnatish va ma'lumotlar bilan almashish, platformadan kutilayotgan xizmatlarni belgilash bo'ldi.

IKARDA va CAMP4ASB loyihasi mutaxassislari seminar ishtirokchilariga platforma konsepsiyasi, uni ishlab chiqarish shartlari va tarkibiy qismlari, harakatlar rejasini taqdim etdilar.

Seminar davomida ishtirokchilar guruhlariga bo'linib, "Biz nimani bilamiz, va platforma vositasida milliy va mahalliy miqyosda qaror qabul qilish uchun qanday ilmiy ma'lumotlardan foydalanish mumkin?", "Bilimlar uchun pul to'lash kerakmi yoki ular bepulmi bo'ladimi? Bunga misollar", "Ma'lumot almashishning asosiy shakl-shamoyillari" kabi masalalarni muhokama qildilar.

Munozaralar yakuni bo'yicha mintaqaviy iqlimiy axborot platformasini shakllantirishga doir fikr-mulohazalar bildirildi, takliflar berildi. SHu kabi seminarlar shuningdek Qozoqiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikistonda ham o'tkazilishi, va ularda ishtirokchilarning taklif va mulohazalari o'rganilishi ta'kidlandi.

Oxir oqibatda ushbu axborot platformasi manfaatdor tomonlarga xabardorlikni oshirish, baholash va qaror qabul qilish maqsadida ma'lumotlarni olish, ularni tahlil qilish va vizuallashtirishga ko'maklashishga chaqirilgan. Bu esa kompleks va yangimlangan ma'lumotlarga ega bo'lish, bunda global, mintaqaviy va mahalliy ma'lumot bazalaridan foydalanishga imkon beradi hamda axborotni vizuallashtirish va talqin qilish uchun tahliliy vositalar bilan ta'minlaydi.

Марказий Осиё иқлимий ахборот платформасини яратиш: хабардорликни ошириш, баҳолаш ва қарор қабул қилиш

Куни кеча Тошкентда Марказий Осиё иқлимий ахборот платформасини яратишга бағишланган маслаҳат семинари ўтказилди. Тадбир Курғоқчил минтақаларда қишлоқ хўжалик тадқиқотлари халқаро маркази (ИКАРДА)нинг Минтақавий ваколатхонаси томонидан ташкил этилди. Семинар ишида Қишлоқ хўжалиги, Сув хўжалиги вазирликлари, Ўзгидромет вакиллари, минтақавий халқаро лойиҳалар мутахассислари ва бошқалар иштирок этди.

Семинарни ўтказишдан мақсад “Орол денгизи ҳавзасида иқлим ўзгаришига мослашиш ва унинг оқибатларини юмшатиш” лойиҳаси(CAMP4ASB)нинг “Марказий Осиё иқлимий ахборот платформасини яратиш” компоненти билан таништириш, республикамиздаги мавжуд иқлимий маълумотларни баҳолаш, ҳамкорлик ўрнатиш ва маълумотлар билан алмашиш, платформадан кутилаётган хизматларни белгилаш бўлди.

ИКАРДА ва CAMP4ASB лойиҳаси мутахассислари семинар иштирокчиларига платформа концепцияси, уни ишлаб чиқариш шартлари ва таркибий қисмлари, ҳаракатлар режасини тақдим этдилар.

Семинар давомида иштирокчилар гуруҳларга бўлиниб, “Биз нимани биламиз, ва платформа воситасида миллий ва маҳаллий миқёсда қарор қабул қилиш учун қандай илмий маълумотлардан фойдаланиш мумкин?”, “Билимлар учун пул тўлаш керакми ёки улар бепулми бўладими? Бунга мисоллар”, “Маълумот алмашишнинг асосий шакл-шамойиллари” каби масалаларни муҳокама қилдилар.

Мунозаралар якуни бўйича минтақавий иқлимий ахборот платформасини шакллантиришга доир фикр-мулоҳазалар билдирилди, таклифлар берилди. Шу каби семинарлар шунингдек Қозоқистон, Туркменистон, Қирғизистон ва Тожикистонда ҳам ўтказилиши, ва уларда иштирокчиларнинг таклиф ва мулоҳазалари ўрганилиши таъкидланди.

Охир оқибатда ушбу ахборот платформаси манфаатдор томонларга хабардорликни ошириш, баҳолаш ва қарор қабул қилиш мақсадида маълумотларни олиш, уларни таҳлил қилиш ва визуаллаштиришга кўмаклашишга чақирилган. Бу эса комплекс ва янгимланган маълумотларга эга бўлиш, бунда глобал, минтақавий ва маҳаллий маълумот базаларидан фойдаланишга имкон беради ҳамда ахборотни визуаллаштириш ва талқин қилиш учун таҳлилий воситалар билан таъминлайди.

Создание Центрально-Азиатской климатической информационной платформы: поддержка и повышение информированности, оценка и принятие решений

11 июня 2019 года в Ташкенте состоялся консультативный семинар, посвященный созданию Центрально-Азиатской климатической информационной платформы (ЦАКИП). Мероприятие было организовано Региональным представительством

Международного центра сельскохозяйственных исследований в засушливых регионах (ИКАРДА). В работе семинара приняли участие представители Министерства сельского хозяйства, Министерства водного хозяйства, Госкомземгеодезкадастр, Узгидромета, специалисты региональных проектов и другие.

Целью семинара явилось ознакомление с компонентом «Создание Центрально-Азиатской климатической информационной платформы» проекта «Программа по адаптации к изменению климата и смягчению его последствий в бассейне Аральского моря» (CAMP4ASB), проведение оценки имеющейся информации и данных, установление сотрудничества и обмен данными, определение потребностей и услуг, ожидаемых от платформы и согласование последующих шагов и мероприятий в рамках данного компонента проекта.

Участникам семинара специалистами ИКАРДА и проекта CAMP4ASB были представлены концепции платформы, условия ее разработки и основные составные элементы, план действий и процесс участия.

В ходе консультативного семинара участники разбились на группы, в которых были обсуждены такие вопросы как, «Что мы знаем, и какая научная информация должна быть доступной посредством платформы для использования в процессе принятия решения на национальном и местном уровнях?», «Необходимо ли платить за знания или они должны быть бесплатными? Какие есть примеры?», «Основные форматы/каналы для обмена знаниями».

По итогам обсуждений партнеры высказали мнения и предложения по формированию региональной климатической информационной платформы. Также было отмечено, что подобные семинары пройдут в Казахстане, Туркменистане, Кыргызстане и Таджикистане, в которых участники дадут свои предложения.

В конечном итоге ЦАКИП призван оказывать содействие заинтересованным сторонам в доступе, анализе, визуализации открытых данных для повышения информированности, оценки и принятия решений. Это позволит иметь комплексные и обновленные данные и информацию, связывая с качественными базами данных из глобальных, региональных и местных источников, обеспечит аналитические инструменты для визуализации и интерпретации информации.

